

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

SAIDOVA NIGORA RUSTAM QIZI

**YUGURUVCHILARNING YILLIK TAYYORGARLIK
MASHG‘ULOTLAR JARAYONINI BOSHQARISH**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq–2024

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Saidova Nigora Rustam Qizi

Yuguruvchilarning yillik tayyorgarlik mashg'ulotlar jarayonini boshqarish.....3

Саидова Нигора Рустам кизи

Управление тренерочным процессом годичной подготовки бегунов.....29

Saidova Nigora Rustam qizi

Management of annual training processes for runners.....59

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....63

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

SAIDOVA NIGORA RUSTAM QIZI

**YUGURUVCHILARNING YILLIK TAYYORGARLIK
MASHG‘ULOTLAR JARAYONINI BOSHQARISH**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq–2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Ped4637 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasining www.jtsu.uz va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portali manzilida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Olimov Muxsinbek Sotivoldiyevich
pedagogika fanlari doktori(DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Isakulova Nilufar Janikulovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ruzamuhamedov Kamoliddin Faxriddinovich
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil "____" "____" soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurglar ko'chasi, 15-uy. Tel.: (0-370)-717-27-27, faks:(0-370) 717-17-76, veb-sayt: www.jtsu.uz, e-mail: info@jtsu.uz, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, "Madaniyat saroyi" 2-qavat kichik majlislar zali,).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (0-370)-717-17-79, 717-27-27, faks (0-370) 717-17-76.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "____" _____ kuni tarqatilgan.
(2024-yil "____" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

R.M.Matkarimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, p.f.d. (DSc), professor

Sh.Sh.Gaziyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi,
p.f.d. (DSc), dotsent

A.N.Shopulatov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy
seminar raisi, p.f.d. (DSc), dotsent

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va uning zaruriyati. Dunyo miqiyosida yengil atletika sport turlarini rivojlanib borishi iqtidorli, istiqbolli sportchilarni izlab topish barobarida sportchilar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish va optimal rejalashtirish asosida ko‘p yillik mashg‘ulot jarayonlarini istiqbolli rejasini ishlab chiqish, tashkil etish hamda maqsadli boshqarish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lmoqda. Bugungi kunda sportchilarni tayyorlash tizimida turli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ammo shunday bo‘lsa-da sportchilar tayyorlash tizimini to‘g‘ri tashkil qilish va boshqarish masalalari kundan-kunga dolzarb vazifalardan biriga aylanib bormoqda. Chunki jahon sport arenalarida o‘tkazib kelinayotgan musobaqalardagi ko‘rsatilayotgan sport natijalarini tobora yuksalib borishi o‘tkaziladigan mashg‘ulot jarayonlarini samarali boshqarish talabini qo‘ymoqda.

Jahon sport amaliyotidagi bugungi kunda mashg‘ulot jarayonida joriy, operativ, bosqichli boshqaruv usullaridan keng foydalanib kelinmoqda. Sportchilar tayyorlash tizimini boshqarish bo‘yicha tubdan takomillashtirilgan texnologiyalar yordamida ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, sportchilar tayyorlash tizimida va sport turlariga saralash jarayonida tibbiy-biologik, psixofiziologik, anotomo-morfologik ko‘rsatkichlarni nazorat qilish, ko‘p yillik mashg‘ulotlarni rejalashtirish va boshqarish masalalariga turli ilmiy yondashuvlardan foydalanib izlanishlar olib borilmoqda. Ammo shunday bo‘lsa-da, yengil atletikachi qisqa masofaga yuguruvchilarni yillik mashg‘ulotlar jarayonini turli usullar asosida boshqarish bugungi kundagi dunyo mutaxassislari oldida turgan muhim masalalardan sanalmoqda. Lekin, qisqa masofaga yugurish bo‘yicha tayyorgarlik jarayonlarini boshqarishni optimallashtirilgan variantini ishlab chiqish va amaliyotda qo‘llash zarurati yuzaga kelmoqda.

Yurtimizda so‘nggi yillarda jismoniy tarbiya va sport sohasida judayam ko‘p islohatlar olib borilmoqda. Jumladan, sportchilar tayyorlash ayniqsa, yuqori malakali sportchilarni tayyorlash tizimini, tubdan isloh etish, sport mashg‘ulotlarini boshqarishda bosqichli, joriy, tezkor boshqaruv usullarini uyg‘unlashtirish, yillik yuklamalar taqsimotini sportchining individual xususiyatlaridan kelib chiqib rejalashtirish, yuklamalarni optimallashtirish, mikrosikllarni yanada takomillashtirish kabi turli usullar qo‘llanilib kelinmoqda. Turli xil sport turlari bo‘yicha yurtimiz vakillarining Olimpiya o‘yinlari, jahon chempionatlari va Osiyo o‘yinlarida yuksak sport natijalarga erishayotganligini O‘zbekistonning dunyoda sport sohasida obro‘-e‘tiborini yanada yuksalishiga xizmat qiladi, albatta. “Respublikamizning turli hududlarida jahon standartlariga mos zamonaviy sport inshootlari qurilmoqda”¹ bu esa murabbiylarga katta ma‘suliyatli vazifalarini belgilab bermoqda. Jahon arenalarida yurtimiz sha‘nini yanada yuqoriga ko‘tarish uchun ham ularning mashg‘ulot jarayonlarini zamonaviy innovatsion texnologiyalardan samarali darajada foydalangan holda

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son va “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni

mashg'ulot va musobaqa faoliyatini boshqarish sohada katta ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-iyundagi PF-5924-son "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son va "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2022-yil 3-noyabrdagi PQ-414-son "Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" hamda mazkur sohaga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar ritvojlantirishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" bilan bog'liq ustuvor yo'nalishlariga mos ravishda amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Yengil atletikaning turli masofalarga yugurish turlarida ham sportchilar o'rtasida raqobatning keskinlashuvi yillik mashg'ulot jarayonini rejalashtirishning ilmiy jihatdan asoslangan variantini ishlab chiqish uslubiyatiga e'tibor qaratilgan (G.G.Arzumanov, K.T.Shakirjanova, R.Qudratov, N.T.To'xtaboyev, M.S.Olimov, I.R.Soliev va boshqalar)². Jumladan, tezkorlik qobiliyatlarining tarkibiy komponentlari (oddiy va murakkab harakat reaksiyasi, ma'lum vaqt ichida harakatni takrorlash soni va h.k.) ularni sport turlarida bir-biridan farqlanish xususiyatlari, anaerob ish qobiliyatiga asoslangan tezkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodlari, vositalari va baholash masalalari ochib berilgan.

Yengil atletika sport turini rivojlantirish, kelgusida yuqori sport natijalariga erishish uchun mashg'ulot yuklamalarini sportchilarning tayyorgarlik darajasiga mos ravishda rejalashtirish, yillik yuklamalar hajmining belgilangan shiddatida bajarilishi, qo'llaniladigan vosita-usullarning eng optimal va samarali variantlari asosida mashg'ulotlarni olib borish, qisqa masofaga yuguruvchilar mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirishda sportchilarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda mashg'ulotlarni tashkil etish, yuqori malakali sportchilarni tayyorlashda ularning integral tayyorgarlik imkoniyatlarini shakllantirishga oid masalalar soha mutaxassislari A.A.Ter-Ovanesyan, L.P.Matveyev, V.N.Platonov, O.I.Pavlova, P.Tompson, V.A.Koleda, V.V.Klinov, M.S.Kojedub,

² Арзуманов Г.Г. Влияние тренировочных режимов на изменение показателей структурных компонентов техники бега и специальной работоспособности спринтеров. Автореферат дис. ... канд. пед. наук: 13.00.04 / Арзуманов Геннадий Георгиевич; – М., 1982. – 25 с.; Shakirjanova K.T. Yengil atletikada boshqaruv va pedagogik nazorat. O'quv qo'llanma – T.: 2009. – 58 b.; Qudratov R. Yengil atletika. Darslik. – T.: 2014. - 342 b.; To'xtaboyev N.T., Shakirjanova K.T., Soliev I.R. Qisqa masofalarga yugurish uslubiyati. O'quv qo'llanma – T.: 2017. – 186 b.; Olimov M.S., Shakirjanova K.T., Rafiyev H.T., Smurigina L.V., To'xtaboyev N.T. va boshqalar. Darslik. Yakkakurash, koordinatsion va siklik sport turlari "Yengil atletika". – T.: 2018. – 662 b.

Ye.P.Vrublevskiy va boshqalar³ tomonidan yetarlicha o'rganib chiqilgan.

O'ta keskin o'zgaruvchan yo'nalishlar bo'ylab va favqulodli vaziyatlar rejimida harakatlanish tezligi bilan farqlanuvchi sport o'yinlarida, ayniqsa yengil atletikada tezkorlik qobiliyatlarini tarbiyalash, ularni mashg'ulotlar davomida shakllanishi va o'sish sur'ati maxsus testlarga asoslangan tadqiqotlar asosida o'rganilgan, turli yosh va sport malakasiga mansub yengil atletikachilarga mo'ljallangan me'yoriy talablar hamda model' ko'rsatkichlar ishlab chiqilganligi e'tirof etilgan (M.T.Pain, A.Hibbs, S.Schiffer, D.Jurgen)⁴.

Shunga qaramay, hali ham ta'lim maskanlarida faoliyat olib borayotgan yengil atletikaning qisqa masofalarga yugurish turlariga ixtisoslashgan talaba-sportchilar bilan o'tkazilayotgan mashg'ulotlarning tashkil etilishi, mashg'ulot yuklamalarining hajmi, shiddati, bajarilish sur'ati va samaradorligini talab darajasida deb bo'lmaydi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining 2020-2024 yillarga mo'ljallangan ilmiy-tadqiqot ishlar strategiyasi va istiqbolli rejasining "O'zbekiston terma jamoalarida malakali sportchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi qisqa masofaga yugurish bilan shug'ullanuvchi sportchilarning mashg'ulot jarayonlarini majmual nazorat yordamida boshqarish samaradorligini oshirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

qisqa masofaga yuguruvchilarni yillik tayyorgarlik jarayonlarida boshqaruv usullarini qo'llanilishi va uni samaradorligini pedagogik tajribada aniqlash;

qisqa masofaga yuguruvchilarni yillik tayyorgarligining mashg'ulot va musobaqa davrlari uchun pedagogik nazorat me'yorlarini ishlab chiqish;

qisqa masofaga yuguruvchilarning funksional tayyorgarlik darajasini xisobga olgan holda, tayyorgarlikning mikro, mezo, va makro sikllarida yugurish tezligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

qisqa masofaga yuguruvchilarni yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarini optimallashtirilgan boshqaruv modelini ishlab chiqish va pedagogik tajribada

³ Тэр-Ованесян А.А. Обучение в спорте / Тер-Ованесян А.А., Тер-Ованесян И.А. – М.: Сов. спорт, 1992. – 190 с.; Матвеев Л.П. Общая теория спорта и ее прикладные аспекты: Учеб. для вузов ФК / Л.П.Матвеев. – 5-е изд., испр. и доп. – М.: Сов. спорт, 2010. – 340 с.; Платонов, В.Н. Периодизация спортивной тренировки. Общая теория и ее практическое применение / В.Н.Платонов. – Киев: Олимпийская литература, 2013. – 624 с.; Павлова О.И. Структурой многолетней подготовки юных спортсменов в беговых видах легкой атлетики: автореф. дис...д-ра пед. наук / - М., 2005. – 46 с.; Томпсон, П. Дж.Л. Введение в теорию тренировки. Официальное руководство ИААФ по обучению лёгкой атлетике. – М.: 2010. – 218 с.; Коледа В.А. – Теория спорта: учебные пособие / В.А.Коледа, В.В.Клинов, «Мозыр» : МГПУ имени И.П.Шамякина, 2017. 185 с.; Кожедуб, М.С. Роль индивидуального подхода тренера в подготовке квалифицированных легкоатлетов / М.С. Кожедуб, Е.П. Врублевский // Физическое воспитание и детско-юношеский спорт: научно-методический журнал. – 2018. – № 1. – С. 20-22.

⁴ Pain, M.T.G. Sprint starts and the minimum auditory reaction time / M.T.G. Pain, A. Hibbs // Journal of Sports Sciencyes. - London. - 2007. - Vol. 25, No. 1. - P. 7986; Schiffer, Jurgen. Start v sprinte. Legkoatleticheskiy Vestnik IAAF. 1/2009 .24:1; 97 – 119.

samaradorligini ilmiy asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida qisqa masofalarga yugurish turlariga ixtisoslashgan talaba-sportchilarning o'quv mashg'ulot jarayoni tanlab olingan.

Tadqiqot predmetini qisqa masofalarga yugurish turlariga ixtisoslashgan talaba-sportchilar bilan o'tkaziladigan yillik tayyorgarlik mashg'ulotlar va musobaqa jarayonini boshqarish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy-uslubiy adabiyotlar materiallarini tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, antropometrik usul, BEURER pulsotaxograf uskunasi bilan foydalanish, start reaksiyasini aniqlash, pedagogik tajriba, pedagogik testlash, matematik statistika usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qisqa masofaga yuguruvchilarni yillik tayyorgarlik mashg'ulotlar jarayonlarini boshqarishda sprinterlarni start reaksiyasini va start tezligini oshirishiga qaratilgan mashqlar kompleksini (startdan chiqish, startdan chiqib yugurish) qo'llash hisobiga talaba-sportchilarni mashg'ulotlar va musobaqalar jarayonini boshqarish imkoniyatlari oshirilgan;

qisqa masofaga yuguruvchilarni yillik tayyorgarlik mikrosikllarida (tortuvchi, hajmli, zarbdor, musobaqa oldi davrlari, musobaqa davrlari uchun) pedagogik nazorat qilish, texnik-taktik rivojlantirish me'yorlarini ishlab chiqish hisobiga ularni musobaqalarga samarali tayyorlash imkoniyatlari kengaytirilgan;

qisqa masofaga yuguruvchilarni funksional tayyorgarligini rivojlantirishda turli shiddat zonalarida (o'rta, katta, submaksimal va maksimal zonalarda) yuklamalarni to'lqinsimon bajarish hisobiga sprinterlarda funksional zaxira imkoniyatlarini boshqarish va rivojlantirish takomillashtirilgan;

qisqa masofaga yuguruvchilarni yillik tayyorgarligining turli bosqichlarida joriy, oraliq, tezkor, bosqichli mashg'ulotlar modelini qo'llash hisobiga sprinterlarni sport musobaqasiga tayyorlash tizimi takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yengil atletika sport turida texnik, taktik, funksional ko'rsatkichlarni pedagogik nazorat qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

qisqa masofaga yuguruvchi talaba-sportchilarning tayyorgarlik, musobaqa va o'tish davrlari uchun bir yillik tayyorgarlik mashg'ulotlari tuzish va optimal nisbatlarini qo'llash metodikasi takomillashtirilgan;

turli puls zonalarida ishlash ahamiyati (aerob, anaerob, fitness, sog'lomlashtirish) puls zonalaridagi organizm funksional holati, yuklamalarni sportchilar organizmi moslashuvchanligini va ularning funksional xolatini majmuali boshqaruv asosida mashg'ulot jarayoni boshqarib borilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Pedagogik tadqiqotlarning ishonchliligi pedagogik bilish nazariyasi va uslubiyati bo'yicha xorijiy hamda mamlakatimiz yetakchi olimlari va ularning qarashlari bilan asoslanganligi, olingan natijalarning ishonchliligi qo'llanilgan an'anaviy testlarning xalqaro yengil atletika amaliyotida rasman qabul qilinganligi, harakat qobiliyatlarini testlash nazariyasi talablariga asoslangan tartibda "test-retest" sinovlaridan o'tkazilganligi,

testlash tartib-qoidalariga rioya qilinganligi bilan belgilanadi. Shuningdek, bu birini o'zaro to'ldiradigan va tadqiqot vazifalariga mos keladigan tadqiqot uslublarining qo'llanilganligi, tadqiqot natijalarining sifat jihatidan ta'minlanganligi, tadqiqot ishlari va nazorat sinovlarining oshkoraligi hamda olingan tadqiqot natijalarini hisoblashda matematik statistik usullar qo'llanilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati shundan iboratki, yengil atletika sport turining qisqa masofaga yuguruvchi talaba-sportchilarni tayyorlash mobaynida pedagogik nazorat qilish asosida texnik-taktik, natijalarni pedagogik eksperimentda qisqa masofaga yuguruvchi talaba-sportchilarni tayyorlashning maqsadli takomillashtirishning pedagogik nazorat qilish yordamida, shuningdek ularni qo'llash samaradorligini aniqlashda sinovdan o'tkaziladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, sport mashg'ulotlari bosqichlarini rejalashtirishda murabbiy va sportchi orasida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish darajasini oshirish uchun o'quv mashg'ulot jarayonini boshqarishda bosqichli, joriy, tezkor boshqaruv usullarini tizimli qo'llash muhim ekanligini ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qisqa masofaga yuguruvchi sportchilarning tezkorlik, jismoniy, funksional oshirish bo'yicha uslubiyat, tajriba va tadqiqot natijalari asosida:

qisqa masofaga yuguruvchilarni yillik tayyorgarlik mashg'ulotlar jarayonlarini boshqarishda sprinterlarni start reaksiyasini oshirishiga qaratilgan mashqlar kompleksini (startdan chiqish, startdan chiqib yugurish) qo'llash bo'yicha tavsiyalar talaba-sportchilar o'quv-mashg'ulotlari jarayoniga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2023-yil 29-dekabrda 03-01/04/20/14003-son ma'lumotnoma). Natijada talaba-sportchilari quyidagi natijalarni qayt etishdi: jismoniy tayyorgarlik 2,089 %, o'rtacha o'sish sur'ati har bir ko'rsatkich bo'yicha 2,05% ga o'sgan;

qisqa masofaga yuguruvchi talaba-sportchilarning mashg'ulotlar jarayonlarida yuklamalar taqsimoti individuallashtirilgan va har bir sportchiga alohida yuklamalar joriy etilgan natijada jismoniy tayyorgarlik 14,9% ga oshgan. Ushbu bo'yicha tavsiyalar talaba-sportchilar o'quv-mashg'ulotlari jarayoniga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2023-yil 29-dekabrda 03-01/04/20/14003-son ma'lumotnoma). Natijada, tezkor tayyorgarlik 2,045 %, funksional tayyorgarlik 2,013% ga o'sgan;

qisqa masofaga yuguruvchilarni yillik tayyorgarlik mikrosikllarida (tortuvchi, hajmli, zarbdor, musobaqa oldi davrlari, musobaqa davrlari uchun) pedagogik nazorat qilish me'yorlarini ishlab chiqish bo'yicha tavsiyalar talaba-sportchilar o'quv-mashg'ulotlari jarayoniga tadbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2023-yil 29-dekabrda 03-01/04/20/14003-son ma'lumotnoma). Natijada talaba-sportchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasi 12,06% ga oshgan;

qisqa masofaga yuguruvchilarni funksional tayyorgarligini rivojlantirishda turli shiddat zonalarida (o'rta, katta, submaksimal va maksimal zonalarda)

yuklamalarni bajarish hamda mashg'ulotlarini tuzish metodikasi ROSMM sportchilari uchun qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2023 yil 29-dekabrda 03-01/04/20/14003-son ma'lumotnoma). Natijada sportchilarning tezkorlik, jismoniy tayyorgarlik hamda funksional ko'rsatkichlari 12,06% ga yaxshilangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy-uslubiy ishlar, tayyorlangan jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi huzurida (2 ta respublika va 1 ta xorijiy) ilmiy jurnallarda, 2 ta xalqaro maqola, 6 ta ilmiy-amaliy anjuman to'plamlarida) maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiya hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bobdan iborat, hajmi 120 sahifalik matndan iborat, 34 ta jadval, xulosalar, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqotdan olingan natijalarning ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy etilishi, aprobatsiyasi va e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "**Qisqa masofaga yuguruvchilar bilan o'tkaziladigan yillik mashg'ulot yuklamalarini taqsimlanishini aniqlash va mazmuni bo'yicha adabiyotlar tahlili**" deb nomlangan birinchi bobida tanlangan mavzu doirasida chop etilgan grafik manbalar, ilmiy-metodik ma'lumotlar, tadqiqotlar natijalari va bu borada mutaxassis-olimlar tomonidan bildirilgan fikr mulohazalar qiyosiy tahlil qilingan.

Jumladan, tezkorlik qobiliyatlarining tarkibiy komponentlari (oddiy va murakkab harakat reaksiyasi, ma'lum vaqt ichida harakatni takrorlash soni va h.k.) ularni sport turlarida bir-biridan farqlanish xususiyatlari, anaerob ish qobiliyatiga asoslangan tezkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodlari, vositalari va baholash masalalari ochib berilgan (L.P.Matveev, 2010; V.N. Platonov, 2019; V.M.Zatsiorskiy, 2019; J.K. Holodov, V.S. Kuznetsov, 2014).

Dissertatsiyaning "**Tadqiqotni tashkil etish va o'tkazish uslubiyati**" deb nomlangan ikkinchi bobida belgilangan maqsad va vazifalar doirasida o'tkazilgan tadqiqot metodlari, ularning mohiyati, mazmuni hamda qo'llash tartib va qoidalari ochib berilgan. Jumladan, qisqa masofaga yuguruvchi yengil atletikachilarning yillik mashg'ulot jarayonlarini samarali boshqarish orqali ishlab chiqilgan metodikadan foydalanib sportchilarning jismoniy, tezkorlik va funksional ko'rsatkichlarini oshirish natijaviyligini o'rganish maqsadida amalga oshirilgan pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish usullari bo'yicha ma'lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobida quyidagilarga katta e'tibor berildi. Jumaladan, tadqiqotga tayyorgarlik ko'rish, tadqiqotda qo'llaniladigan asosiy tushunchalarni o'rganish, tanlangan mavzuni dolzarbligini asoslash, tadqiqot maqsadi va aniq vazifalarni qo'yish, tadqiqot ob'yekti va predmentini aniqlash, tadqiqot o'tkazish uslublarini tanlash, tadqiqot jarayonini bayon qilish, tadqiqot natijalarini tahlil qilish, tadqiqot natijalarini muhokama qilish, xulosalarni shakllantirish va h.k. Tadqiqot ishi uch bosqichda amalga oshirilganligi haqidagima'lumotlar berib o'tilgan.

Dissertatsiyaning **“Qisqa masofaga yuguruvchilarning mashg'ulot jarayonini boshqarishni innovatsion texnologiyalar orqali takomillashtirishning uslubiy asoslari va boshlang'ich natijalar”** deb nomlangan uchunchi bobida qisqa masofaga yuguruvchi sportchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish uchun qo'llaniladigan mashqlar kompleksi, start reaksiyalarini oshirish, nafas mashqlari hamda oyoq va qo'l mushaklarini yanada rivojlantirish uchun qo'llaniladigan vositalar hamda mashg'ulot jarayonini boshqarishni innovatsion texnologiyalar orqali takomillashtirish bo'yicha pedagogik tajriba boshidagi natijalar, shuningdek ularni muhokamasi keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Qisqa masofaga yuguruvchi talaba-sportchilarning mashg'ulot jarayonini boshqarishni innovatsion texnologiyalar orqali takomillashtirish bo'yicha o'tkazilgan pedagogik tajriba natijalari va ularning muhokamasi”** deb nomlangan to'rtinchi bobida talaba-sportchilar bilan o'tqazilgan pedagogik tajriba natijalari batafsil bayon qilingan. Nazorat va tajriba guruhlar talaba-sportchilarning tajriba boshidagi va yakunidagi natijalar diagramma hamda jadval ko'rinishida aks ettirilgan.

1-jadval

Sprinterning oyoq mushaklar, guruhlarini rivojlantirish bo'yicha umumiy chidamliligini oshirish mashqlari

| Kompleks soni | Maxsus jismoniy tayyorgarlik uchun tanlangan mashq mazmuni | Me'yori |
|---|--|-------------------------------|
| Oyoqlar uchun maxsus mashqlar | -kichik kichik qadamlar tashlab maksimal yugurish | 4-6 marta |
| | -aniq chiziq bo'ylab, to'g'ri chiziq bo'ylab va radiusli yugurish | 4-6 marta |
| Sprinteriga kerakli muskullar gruppasini kuchini o'stirish uchun mashqlar | -qum ustida turli tomonga yugurish | 4-6 marta |
| | -depsinish oyoqni to'g'irlab, maksimal sakrab qadam tashlash -sonning orqa tomon muskullarini mustahkamlash uchun, imkon qadar, keng qadam tashlab yugurish | 4-6 marta 4-6 marta |
| Umumiy chidamlilikni oshirishga qaratilgan mashqlar | -masofani bo'laklarda yugurib o'tish mashqlari | 6 marta |
| | -100 (m) yuguruvchilar uchun 150-300 (m) -400 (m) yuguruvchilar uchun 200-300 (m) - kross 30 daqiqa | 4 marta 4 marta 1 marta |
| Sprinterning qo'l mushak kuchini, start reaksiyalari, hamda UJT rivojlantirish mashqlari | | |

| | | |
|---|--|-----------|
| Qo'l mushak kuchini rivojlantirish uchun mashqlar | -bryuslarda ikki qo'lda tayanib gavnani yuqoriga ko'tarish -bryuslarda ikki qo'lga tayanib harakatlanish -gimnastik skameykaga o'tirgan holda o'ng va chap qo'lda gantellarni almashtirib ko'tarish -trenajorda o'tirgan holatda qo'llarni bir-biriga yaqinlashtirish | 2-4 marta |
|---|--|-----------|

1-jadval davomi

| | | |
|---|---|-----------|
| Start reaksiyasini oshirish uchun mashqlar kompleksi | -startga kamandasini bajarish -diqqat kamandasini bajarish -ovozli signal yordamida qayta-qayta startdan chiqish -10,20,30 (m) masofaga yugurish | 2-4 marta |
| Sprinterning umumiy jismoniy tayyorgarligini oshirish | -Kuper testi (12 minut yugurish) - 60 (m) masofaga mokkisimon yugurish - 30 (m) masofag kiyikcha usulida yugurish -maksimal tezlikda yugurish -20,30,60 (m); | 2-4 marta |
| Sprinterning qisqa masofaga yugurishda to'g'ri nafas olish, ritmini shakllantiruvchi yugurish texnikasi, maxsus jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirish mashqlari | | |
| Qisqa masofaga yugurishda to'g'ri nafas olish texnikasi | -startga buyrug'i berilishidan oldin 2-3 marta chuqur nafas olib start holatini egallash -diqqat kamandasidan keyin oddiy nafas olishga o'rgatish -signaldan so'ng yugurib boshlaganda yarim nafas olib chiqarish | 6-8 marta |
| Qisqa masofaga yugurish texnikasini takomillashtirish | -oyoq tirkaklarini rostlab undan chiqarish -30 (m) -60 (m) -100 (m) -200 (m) | 2-4 marta |
| Maxsus jismoniy tayyorgarlikni oshirish | -takroriy, o'zgaruvchan, dam olish oraliqlarini ohirigacha almashlash va qo'llash | 30-daqiqa |

Talaba-sportchilarning mashg'ulot jarayonlarini boshqarishda mikrosikllarga alohida to'xtaldik. Ya'ni mikrosikllarni takomillashtirish orqali joriy, bosqichli, tezkor boshqaruv usullarini qo'llab mashg'ulot jarayonlarini boshqardik.

Tayyorgarlik davrida talaba-sportchilarni haftalik mikrosikllar mashg'ulotlari jarayonini boshqarish

Tortuvchi mikrosikl

Dushanba. Anaerob rejimda 6-8 km kross yugurish, mushaklarni bo'shashtiruvchi turli tortilish mashqlari 10-15 daqiqa davomida, UJT oshirish mashqlari 20-30 daqiqa davomida, bel va qorin mushaklarini rivojlantiruvchi

mashqlar 2-4 seriya davomida, bir oyoqda 15-20 marotaba o'tirib turish, yengil yugurish mashqlari 40 metr masofaga, oyoqlarni oldinga va orqaga tashlagan holda mashq bajarish, har bir oyoqda 100-120 marotaba qum to'ldirilgan yamada turli sakrash mashqlarini bajarish (chap, o'ng va juft oyoqda).

Seshanba. 4-5 (km) masofaga aerob kross yugurish, URM 15 daqiqa davomida, yadro sharini bosh orqasidan va ikki qo'llab oldinga uloqtirish, o'yin 20-30 daqiqa davomida.

Chorshanba. Yengil yugurish 10-15 daqiqa davomida, egiluvchanlik mashqlari 15 daqiqa davomida, maxsus yugurish mashqlari 8-10 marta 60-80 metrga ikki seriya yugurish, 5 (km) masofaga aralash rejimda kross yugurish.

Payshanba. Dam olish kuni.

Juma. 10-15 daqiqa davomida yengil yugurish, URM egiluvchanlikni rivojlantirish 10-15 daqiqa davomida, umumiy kuchni rivojlantiruvchi mashqlar majmuasini qo'llash, chidamlilikni og'irlashtirilgan jismlar bilan bajariladigan mashqlarni 8-10 marta bajarish, takrorlanish soni 2-seriya davomida, chap va o'ng oyoqda o'tirib turish, o'z og'irligini 100% ga teng bo'lgan shtanga bilan o'tirib turish, qorin va bel mushaklariga 80-90 % shtangani dast ko'tarish 80-90% , yarim o'tirgan holda 100-120% shtanga bilan o'tirib turish, yotgan holatda 80-90%, yugurish 6-8 marta 100-120 (m), 70-80% da yugurish.

Shanba. Yengil yugurish 10-15 daqiqa, URM 15-20 daqiqa, 8 x 50m/100, takroriy dam olish oralig'ini qo'llash, mashqni 80-90 % da bajarish, o'yin (volleybol, basketbol, futbol)

Yakshanba. Dam olish.

Yuqorida berilgan haftalik mikrosiklda tortuvchi mikrosikl misol tariqasida berilgan. Bundan tashqari yana dissertatsiya ishida tortuvchi, hajmli, shiddatli MJT, hajmli texnik, shiddatli, musobaqa oldi tayyorgarlik, musobaqa hamda tiklovchi mikrosikllarga misollar keltirilgan. Biz tomonimizdan mashg'ulot jarayonlarini boshqarish BEURER (pulsataxograf) uskunasiidan foydalanib mashg'ulotlarni boshqarishga e'tibor qaratdik.

Sportchining mashg'ulotlar olib borish mobaynida mikrosikl, mezosikl, musobaqa oldi faoliyati, musobaqadan keying tiklanish, dam olish oraliqlari barcha-barcha bosqichlarda BEURER (pulsataxografdan) foydalandik. Mutaxassislar puls zonalarini besh toifasini ajratadilar. Har bir puls zonalarini 10% ga taxminan farq qiladi. Har bir puls zonalarini o'ziga xos xususiyatlari mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili olib borilganda yuqorida berilgan beshta puls zonasining alohida nomlari mavjud emas, lekin ularga aniq xarakteristikalar berib borilgan. Beurer uskunasiida ushbu zonalar piktogrammalar yordamida aniq ko'rsatib boriladi va maxsus chizmalar yordamida aniq ko'rsatib beradi va maxsus chizmalar yordamida organizmga tushayotgan yuklamalarni aniq ko'rsatib beradi. Ushbu uskuna bizga har bir sportchi mashg'ulot jarayonini boshqarishda individuallashtirishga imkon beradi.

Sog'lomlashtirish zonasi - kichik intensiv zona hisoblanib bunda sportchi 50-60% shiddat zonasida YQS 115-120 ta zarbagacha bir daqiqa mobaynida

kuzatiladi. Bu zonada ishlash sportchining jismoniy tayyorgarlik darajasini oshiradi undan yuqori puls zonalarida ishlashga yordam beradi. Bu toifadagi mashg'ulotlar sportchi uchun qulay va yengildir. Jismoniy tayyorgarligi sust bo'lgan sportchilarning faolligini oshirish maqsadida qo'llaniladi.

Fitness zona - 60-70 % yuklama bilan ishlash. Fitness zonasida yurak urushi chastotasi 120-135 ta zarba bir daqiqada. Bu zonada sportchilar bilan mashg'ulot olib borishimiz sportchilarning umumiy chidamlilikni oshirishimizga yordam beradi. Fitness zonasida mashg'ulot olib borgan sportchilar mushak massasi ortadi hamda kapilyar qon tomirlar devori mustahkamlanadi. Ushbu zonada mashg'ulot olib borish mobaynida 85% yog', 10% uglevod, 5% oqsil parchalanadi. Yurak qon-tomir tizimi hamda nafas olish yaxshilanadi.

Aerob zona - 70-80% yuklama shiddati bilan ishlanadi. Yurak urushi normada ushbu zonada 135-155 tagacha bir daqiqada yetadi. Ushbu zona yuguruvchilarda chidamlilikni oshirishni optimal zonasi zonasidir. Ushbu zonada ishlash sportchilarimizni aerob imkoniyatlarini oshirishga yordam beradi. Ushbu yugurish mobaynida mushaklardagi mayda kapilyar qon tomirlarda kislorod aylanishi yaxshilanadi. Nafas olish hamda yurak qon-tomir tizimining funktsional holatini yaxshilaydi.

Anaerob zona - 80-90% yuklama shiddati bilan ishlanadi. Yurak urushi soni bir daqiqada 155-175 tagacha yetadi. Ushbu zonada mashg'ulot olib borish sport natijalarini yaxshilashga va tezkor- chidamlilikni oshiradi. Yuklama hajmi 90% ga yetganda qondagi kislorod hajmi organizm uchun yetarli bo'lmaydi va sportchi tanasi anaerob sharoitda ishlashga o'tadi. Anaerob zonada sportchilar uzoq vaqt ishlay olishmaydi, sababi organizmdagi nojo'ya ta'sir sut kislotasi hisoblanib mushaklar tez charchashiga olib keladi. Bu zona sportchilar uchun qisqa muddatli hisoblanib yuklama intensivligi yuqori bo'ladi.

Maksimal zona - 90-100%. Ushbu zonada yurak urushlari soni 175-185 zarbagacha yetadi. Maksimal darajada sport natijakorligini oshirishga yordam beradi. Sportchi organizmi butun kuchini sarflab ishlaydi ya'ni barcha rezervlar ishlaydi. Maksimal shiddat zonasida ishlash professional sportchilar uchun qo'llaniladi. Organizm o'zining imkoniyatidan ko'ra ko'proq ishlaydi.

Biz murabbiylar mashg'ulot jarayonlarini boshqarishda puls zonalariga alohida to'xtaldik.

- yugurish bilan shug'ullanishni boshlagan sportchilar dastlab yuqorida berilgan to'rtta bosqichdan ya'ni- sog'lomlashtirish, fitness, aerob, anaerob zonalarni har birida ishlashi zarur.

- sportchilar razminka jarayoni organizmni keyingi ish harakatlarga tayyorlashga xizmat qiladi va u doimiy ikkinchi puls zonasida amalga oshirilishi kerak.

- yuqori shiddat bilan olib borilgan mashg'ulotlardan so'ng organizmni tiklanish jarayoni uchun aerob zona eng qulay va optimal deb hisoblanadi.

- sportchining doimiy ravishda pulsini tekshirib borishimiz nafaqat tiklanish jarayonida juda muhim balki yuklamalar organizmga ta'sirini doimiy ravishda o'rganilib boriladi va ushbu yuklamalar to'g'ri taqsimlanishiga yordam beradi.

Qisqa masofalarga yuguruvchi talaba-sportchilar uchun yillik tayyorgarlik yuklamalarining optimal tuzulishi

| Oylar | Sentyabr | | | Oktabr | | | Noyabr | | | Dekabr | | | Yanvar | | | Fevral | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|--|-----|-----|--------|-----|-----|--------|-----|-----|--------|-----|-----|---|-----|-----|--------|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|---|--|--|--|--|--|--|--|--|--|--|--|
| | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 | 16 | 17 | 18 | 19 | 20 | 21 | 22 | 23 | 24 | 25 | | | | | | | | | | | |
| Haftalar | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| Yillik sikning tuzulishi | Tayyorgarlik | | | | | | | | | | | | Yo'naltiruvchi | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| | Umumiy tayyorgarlik | | | | | | | | | | | | Maxsus tayyorgarlik | | | | | | | | | | | | Musobaqa | | | | | | | | | | | |
| Asosiy ko'rsatkichlari | Umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish | | | | | | | | | | | | Tezlik, tezkor-kuch sifatini va tezkor chidamlilikni rivojlantirish | | | | | | | | | | | | Qisqa masofalarga yugurishning musobaqa texnikasi | | | | | | | | | | | |
| 1. | 6 | 6 | 6 | 6 | 6 | 6 | 6 | 6 | 6 | 6 | 6 | 6 | 6 | 6 | 6 | 6 | 6 | 6 | 6 | 6 | 6 | 6 | 6 | 6 | 6 | | | | | | | | | | | |
| Umumiy mashg'ulotlar soni | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 2. | 12 | 12 | 12 | 12 | 12 | 12 | 12 | 12 | 12 | 12 | 12 | 12 | 12 | 12 | 12 | 12 | 12 | 12 | 12 | 12 | 12 | 12 | 12 | 12 | 12 | | | | | | | | | | | |
| Umumiy mashg'ulotlar soati | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 3. | 24 | 26 | 20 | 24 | 26 | 20 | 22 | 22 | 24 | 20 | 22 | 24 | 24 | 20 | 26 | 24 | 20 | 22 | 24 | 20 | 22 | 24 | 24 | 20 | 22 | | | | | | | | | | | |
| Umumiy yugurishlar hajmi, (km) | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| Yugurish hajmi va shiddati 96-100%, (km) | 0,3 | 0,3 | 0,3 | 0,4 | 0,4 | 0,4 | 0,5 | 0,5 | 0,5 | 0,4 | 0,4 | 0,5 | 0,5 | 0,4 | 0,4 | 0,4 | 0,5 | 0,5 | 0,4 | 0,4 | 0,5 | 0,5 | 0,6 | 0,6 | | | | | | | | | | | | |
| Yugurish hajmi va shiddati 91-96%, (km) | 2,2 | 2,2 | 1,6 | 2,6 | 2,6 | 2,6 | 1,4 | 1,8 | 2,2 | 2,2 | 2,0 | 1,6 | 1,6 | 2,2 | 2,2 | 2,0 | 1,6 | 2,2 | 2,4 | 2,4 | 1,2 | 1,4 | 1,4 | 1,4 | | | | | | | | | | | | |
| Yugurish shiddati 90% gacha, (km) | 4,0 | 4,0 | 3,0 | 4,0 | 4,0 | 4,0 | 4,0 | 4,0 | 3,0 | 4,2 | 4,2 | 4,2 | 4,2 | 4,2 | 4,2 | 2,8 | 2,8 | 4,2 | 4,2 | 3,8 | 3,8 | 3,8 | 2,6 | 2,6 | | | | | | | | | | | | |
| Yugurish mashqlari hajmi, (km) | 2,1 | 2,1 | 1,8 | 1,8 | 1,8 | 1,4 | 1,6 | 1,6 | 1,6 | 2,2 | 2,2 | 2,2 | 2,2 | 2,2 | 2,0 | 2,0 | 2,0 | 1,4 | 1,4 | 2,0 | 2,0 | 1,4 | 1,4 | 1,4 | | | | | | | | | | | | |
| 4. | 3,1 | 3,1 | 1,8 | 3,0 | 3,0 | 1,6 | 1,6 | 3,0 | 3,0 | 3,0 | 3,0 | 3,0 | 3,0 | 3,0 | 3,0 | 3,0 | 3,0 | 3,0 | 3,0 | 3,0 | 3,0 | 2,0 | 2,0 | 2,0 | | | | | | | | | | | | |
| Sakrash mashqlari, depstinishlar, (km) | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 5. | 4 | 4 | 5 | 4 | 4 | 5 | 5 | 4 | 4 | 4 | 4 | 4 | 4 | 4 | 4 | 4 | 4 | 4 | 4 | 4 | 4 | 3 | 3 | 3 | | | | | | | | | | | | |
| Og'riqlar bilan bajariladigan mashqlar, (t) | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 6. | 4 | 4 | 4 | 4 | 4 | 4 | 4 | 4 | 4 | 5 | 5 | 5 | 5 | 5 | 5 | 5 | 5 | 5 | 5 | 5 | 5 | 4 | 4 | 4 | | | | | | | | | | | | |
| O'JT, (s) | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 7. | 6 | 12 | 3 | 6 | 8 | 6 | 10 | 10 | 12 | 10 | 10 | 12 | 10 | 10 | 12 | 10 | 10 | 10 | 10 | 10 | 10 | 10 | 10 | 10 | | | | | | | | | | | | |
| Kross yugurishlar soni | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 8. | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | | | | | | | | | | | | |
| Nazariy tayyorgarlik, (s) | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 9. | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| Musobaqalar soni /startlar, nazoratlar | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 10. | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | | | | | | | | | | | | |
| Tashkiliy xakamlik amaliyoti, (s) | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 11. | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | | | | | | | | | | | | |
| Tibbiy nazorat, (s) | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 12. | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | | | | | | | | | | | | |
| Tarbiyaviy ishlar, (s) | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |


Biz tarafdin ishlab chiqilgan ushbu uslubiyat qisqa masofaga yuguruvchi talaba-sportchilarning jismoniy, funksional, texnik va taktik tayyorgarligini inobatga olib ishlab chiqilgan.

Ushbu uslubiyatda umumiy mashg'ulotlar soni 258 tadan iborat bo'lib, bunda umumiy mashg'ulotlarga jami bo'lib 516 soat vaqt ajratilgan. Umumiy yugurishlar hajmi 1002,9 km ni tashkil etadi. Yugurish hajmi va shiddati 96-100% dagi yugurishlar hajmi 66,6 km.ga, yugurish hajmi va shiddati 91-96% da 104,4 km.ga teng. Yugurish shiddati (91% gacha) 160,3 km va yugurish mashqlari hajmi (80-90%) 112,1km ni tashkil etadi. Kross yugurishlar hajmi 530 km.ni tashkil etgan. Kross yugurish bo'yicha yillik hajmning bunday taqsimlanishi qisqa masofaga yuguruvchilarda bazaviy tayyorgarlikni shakllantirish va shu bilan birga, organizmni keyingi ishga tiklash uchun qo'llanilgan. Yuqoridagi qisqa masofalarga yuguruvchilar uchun ishlab chiqilgan rejalashtirish uslubiyat talaba-sportchilarning oliy o'quv yurtlari o'quv dasturidagi yuklamalarni bajarishini inobatga olib, mashg'ulot jarayoni optimal rejalashtirilgan. Ushbu rejalashtirish dasturi talaba sportchilarining yuklama bajarish oralig'idagi dam olish me'yorlarini hisobga olib ishlab chiqilgan. Bu esa yillik tayyorgarlik siklida talaba-sportchilarning musobaqalarda faol ishtirok etishi va yuqori sport natijalarini ko'rsatishga zamin yaratadi.

Sportchilar tayyorlash tizimida boshqaruv sportchilarni tayyorlashdagi asosiy komponentlardan sanaladi. Sport boshqaruvi o'z mohiyatiga ko'ra sport tayyorgarligi tarkibining turli tizimlari va funksiyalarini boshqarish lozim. Mashg'ulot jarayonini samarali boshqarish sportchilar tayyorlash tizimidagi qonuniyatlar tamoillar qo'llaniladigan vosita va usullar bundan tashqari sport jixozlaridan foydalanish va ilmiy asoslangan mashg'ulotlarga tadbiiq etish orqali erishiladi. Sportchilar tayyorgarligini boshqarishda bir nechta boshqaruv usullari farqlanadi. Bunga bosqichli, oraliq, joriy boshqaruvlar bo'lib bularning o'z vazifalari mavjud. Bosqichli boshqaruv bu ko'p yillik va yillik yuklamalarda boshqaruvni nazarda tutadi. Bu bosqichli boshqaruvda mashg'ulotlarni optimallashtirishga yonaltirishni amalga oshirishni ko'rsatadi. Qolaversa bosqichli boshqaruv samaradorligi ma'lum bir kamponenti sportchi erishishi kerak bo'lgan tayyorgarlik darajasi yoki sport natijasi haqidagi to'liq tasavvurni borligi bo'lsa; ikkinchidan ma'lum vaqt ichida jismoniy funksional texnik-taktik va ruhiy tayyorgarlikni rivojlantiruvchi vosita usullarni saralab olish va ularni sport amaliyotida samarali foydalanishni bilish hamda qo'llanilishi uchinchidan tayyorgarlik jarayonini samaradorligini pedagogik nazorat qilish va uni doimiy tahlili asosida o'rganib yillik rejaga o'zgartirishlar kiritish.

Tayyorgarlik va musobaqa bosqichlarida operativ ya'ni tezkor boshqarish bo'lib bu mashg'ulot jarayonida turli mashg'ulot vositalari va majmualarini bajarish vaqtida sportchilar organizmidagi hamda funksional tizimlardagi o'zgarishlarga musobaqa startlari vaqtidagi xarakat reaksiyalarini faoliyatlarining berilgan tavsiflarga erishishni nazarda tutadi.

Tezkor boshqaruv jismoniy funksional texnik taktik psixologik tayyorgarlikning samaraliligini aniqlaydigan va uning xar xil jixatlarini belgilaydigan xal qiluvchi omillardan hisoblanadi.



1-rasm. Pedagogik tajriba boshida nazorat va tajriba guruhlar talaba sportchilarining jismoniy, funktsional va tezkorlik tayyorgarlik ko'rsatkichlari dinamikasi

Mazkur diagrammadagi ma'lumotlarni tahlil qilib chiqish jismoniy, tezkorlik va funktsional ko'rsatkichlarning o'rtacha arifmetik qiymatlarini nazorat va tajriba guruhlarini sinaluvchi talabalarining tayyorgarlik darajalarini bir-birlariga juda yaqinligini ko'rsatib va shuning o'zi pedagogik tajribani uslubiy jihatdan to'g'ri tashkil etilganligini isbotlab turibdi. Jumladan, pedagogik tajriba boshida nazorat va tajriba guruhlarini sinaluvchilarining o'rganilgan 6 ta jismoniy tayyorgarlik testlari bo'yicha umumiy o'rtacha nisbiy farq 1,28 % ni, 7 ta tezkorlikni xarakterlaydigan testlar bo'yicha umumiy o'rtacha nisbiy farq 2,32 % ni va 9 ta funktsional tayyorgarlik testlari bo'yicha umumiy o'rtacha nisbiy farq 1,40 % ni, o'rganilgan barcha testlar bo'yicha o'rtacha nisbiy farq 1,67 % ga tengligi tashkil etganligi fikrimiz tasdig'idir.

Dissertatsiyaning **“Qisqa masofaga yuguruvchi talabalarining mashg'ulot jarayonini boshqarishni innovatsion texnologiyalar orqali takomillashtirish bo'yicha o'tkazilgan pedagogik tajriba natijalari va ularni muhokamasi”** deb nomlangan to'rtinchi bobida pedagogik tajriba boshidagi va yakunidagi olingan nazorat va tajriba guruhiga mansub talaba-sportchilarning natijalar qiyosiy tahlili ko'rsatib o'tilgan.

Sportchi talabalarining mashg'ulot jarayonini boshqarishni innovatsion texnologiyalar orqali takomillashtirish bo'yicha o'tkazilgan pedagogik tajriba davomida jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini o'zgarish dinamikasi bo'yicha Ilmiy-uslubiy adabiyotlar materiallarini tahlili va shaxsiy amaliy tajriba ma'lumotlarimiz asosida tanlab olingan testlar bo'yicha nazorat va tajriba guruhlariga mansub talaba sportchilarining pedagogik tajriba boshida va oxirida qayd etilgan (test va retest) natijalari, ularning asosiy statistik xarakteristikalarini, o'rganilgan har bir test bo'yicha guruhlarinaluvchilari natijalari o'rtacha arifmetik qiymatlarining absolyut va (ushbu guruhda tajriba boshidagi mos ko'rsatkichga nisbatan) nisbiy o'sishlari hamda ushbu absolyut o'sishlarni St'yudent taqsimoti kritik qiymatlarini hisoblash asosida amalga oshirilgan statistik ishonchlilik baholari ma'lumotlari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Nazorat (n=24) va tajriba (n = 24) guruhiga mansub talaba sportchilarining jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari statistik xarakteristikalarini pedagogik tajriba davomida o'zgarish dinamikasi

| test | Guruh | Tajriba boshi | | | Tajriba oxiri | | | O'sish | t | P |
|--|-------|---------------|----------|-------|---------------|----------|-------|----------|------|--------|
| | | \bar{X} | σ | V, % | \bar{X} | σ | V, % | Absolyut | | |
| joyidan turib uzunlikka sakrash (sm) | NG | 242,16 | 25,53 | 10,54 | 257,43 | 26,06 | 10,12 | 15,27 | 2,05 | <0,05 |
| | TG | 238,62 | 26,22 | 10,99 | 272,24 | 27,44 | 10,08 | 33,62 | 4,34 | <0,001 |
| joyidan turib uchhatlab sakrash (sm) | NG | 695,22 | 101,86 | 14,65 | 747,84 | 105,84 | 14,15 | 52,62 | 1,75 | >0,05 |
| | TG | 704,26 | 105,44 | 14,97 | 814,73 | 114,89 | 14,10 | 110,47 | 3,47 | <0,01 |
| 3-"SPORK" uskunasi yuqoriga sakrash (sm) | NG | 37,62 | 5,09 | 13,53 | 40,72 | 5,35 | 13,14 | 3,10 | 2,06 | <0,05 |
| | TG | 37,02 | 5,17 | 13,97 | 43,69 | 5,74 | 13,14 | 6,67 | 4,23 | <0,001 |
| massasi 6 kg. bo'lgan yadro sharini ikki qo'llab oldinga uloqtirish (sm) | NG | 793,34 | 91,96 | 11,59 | 848,96 | 94,62 | 11,15 | 55,62 | 2,07 | <0,05 |
| | TG | 802,97 | 96,03 | 11,96 | 916,73 | 102,16 | 11,14 | 113,76 | 3,97 | <0,001 |
| massasi 6 kg. bo'lgan yadro sharini ikki qo'llab orqaga uloqtirish (sm) | NG | 776,49 | 97,71 | 12,58 | 827,73 | 100,24 | 12,11 | 51,24 | 1,79 | >0,05 |
| | TG | 784,94 | 101,83 | 12,97 | 885,73 | 107,42 | 12,13 | 100,79 | 3,34 | <0,01 |
| joyidan turib beshhatlab sakrash (sm.) | NG | 11,31 | 1,53 | 13,53 | 12,11 | 1,59 | 13,13 | 0,80 | 1,78 | >0,05 |
| | TG | 11,43 | 1,59 | 13,91 | 13,10 | 1,72 | 13,13 | 1,67 | 3,49 | <0,01 |

Mazkur jadvalda keltirilgan ma'lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilish pedagogik tajribaga jalb etilgan nazorat va tajriba guruhlarida sportchi talabalari tomonidan o'rganilgan jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini xarakterlaydigan testlar bo'yicha tajriba boshida va oxirida qayd etilgan (test va retest) natijalari pedagogik tajriba davomida o'rganilgan hamma 6 ta ko'rsatkichlarda ham ijobiy o'zgarishlar sodir bo'lganligini ko'rsatib turibdi. Jumladan, o'rganilgan 1-test bo'yicha pedagogik tajriba boshida nazorat guruhi sportchi talabalari natijalarining o'rtacha arifmetik va standart og'ish qiymatlari $\bar{X} \pm \sigma = 242,16 \pm 25,53$ sm. ga teng bo'lgan bo'lsa, tajriba oxirida mazkur ko'rsatkichlar $\bar{X} \pm \sigma = 257,43 \pm 26,06$ sm. gacha, tajriba guruhida esa ushbu ko'rsatkichlar, mos ravishda, tajriba boshidagi $\bar{X} \pm \sigma = 238,62 \pm 26,22$ sm. dan, tajriba oxirida $\bar{X} \pm \sigma = 272,24 \pm 27,44$ sm. gacha ijobiy o'zgarishlari aniqlandi. Shuning bilan birga, ushbu test ko'rsatkichlari bo'yicha nazorat guruhi sportchilarining tajriba natijalari o'rtacha arifmetik qiymatlarining tajriba davomidagi absolyut o'sishi 15,27 sm.ni va ularning (tajriba boshidagi mos ko'rsatkichiga nisbatan) nisbiy o'sishi 6,31 % ni, tajriba guruhida esa ushbu ko'rsatkichlar, mos ravishda, 33,62 sm.ni va 14,09 % ni tashkil etganligi (TGdagi nisbiy o'sish NGdagidan 7,78 foizga ortiqcha o'sganligi) aniqlandi (2-rasm).

Ushbu test bo'yicha qayd etilgan natijalar o'rtacha arifmetik qiymatlari absolyut o'sishining statistik ishonchligini St'yudent taqsimoti kritik qiymatini hisoblash asosida baholash nazorat guruhidagi ijobiy o'zgarishni qoniqarli ($t=2,05$ va $P<0,05$), tajriba guruhida esa yuqori ($t=4,34$ va $P<0,001$) ahamiyatlilik


darajasida ishonchli ekanligini aniqlash imkonini berdi.

Shuning bilan birga, pedagogik tajriba davomida nazorat guruhi sinaluvchilarining o'rganilgan 6 ta jismoniy tayyorgarlik testlari orasida eng kichik ijobiy nisbiy o'sish 1-testda (6,31 %), eng katta nisbiy o'sish esa 3-testda (8,24 %) kuzatilgan bo'lsa, 6 ta test bo'yicha umumiy o'rtacha ijobiy nisbiy o'sish 7,13 % ni, tajriba guruhida esa eng kichik ijobiy nisbiy o'sish 5-testda (12,84 %), eng katta nisbiy o'sish esa 3-testda (18,02 %) kuzatilgan bo'lsa, 6 ta test bo'yicha umumiy o'rtacha ijobiy nisbiy o'zgarish 14,09 % ni tashkil etganligi (TGdagi o'rtacha nisbiy o'sish NGdigidan 6,96 foizga ortiqcha o'sganligi) aniqlandi.

O'rganilgan 6 ta jismoniy tayyorgarlik testlarining nazorat guruhida pedagogik tajriba davomida qayd etilgan natijalar o'rtacha arifmetik qiymatlari absolyut o'sishining statistik ishonchlilik ko'rsatkichlaridan uchta yoki yarmi qoniqarli ($P < 0,05$ hamda $t = 2,05$; $t = 2,06$ va $t = 2,07$ qiymatlar bilan) ahamiyatlilik darajasida ishonchli va qolgan yarmi yoki yana uchta qoniqarli ($P > 0,05$ hamda $t = 1,75$; $t = 1,79$ va $t = 1,78$ qiymatlar bilan) ahamiyatlilik darajasida ishonchsiz, tajriba guruhida esa ushbu 6 tadan uchta yoki yarmi yaxshi ($P < 0,01$ hamda $t = 3,47$; $t = 3,79$ va $t = 3,49$ qiymatlar bilan) ahamiyatlilik darajasida ishonchli va qolgan yarmi yoki yana uchta yuqori ($P < 0,001$ hamda $t = 4,34$; $t = 4,23$ va $t = 3,97$ qiymatlar bilan) ahamiyatlilik darajasida ishonchli ijobiy o'zgarish kuzatildi.

Bu faktlar biz tomonimizdan pedagogik tajribani uslubiy jihatdan to'g'ri tashkil etilganligini tasdiqlab turibdi.

2-rasmda nazorat va tajriba guruhlariga mansub talaba sportchilarining jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari statistik xarakteristikalarini o'rtacha arifmetik qiymatlarini pedagogik tajriba davomida (mazkur guruhda tajriba boshidagi mos ko'rsatkichga nisbatan foizlarda ifodalangan) nisbiy o'sishlarini o'zaro solishtirish natijalari keltirilgan.



2-rasm. Nazorat va tajriba guruhlariga mansub talaba sportchilarining jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari dinamikasi

Ushbu diagrammada keltirilgan ma'lumotlarni tahlili nazorat va tajriba guruhlariga mansub talaba sportchilarining jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari statistik xarakteristikalarini o'rtacha arifmetik qiymatlarini pedagogik tajriba davomida nisbiy o'sishlarining nisbati eng kamida 1,946 marta va eng ko'pida

2,234 marta, guruhlardagi nisbiy o'sishlar bo'yicha esa 2,089 martaga nazorat guruhiga nisbatan tajriba guruhida ko'proq o'sganligi kuzatildi.

Mashg'ulot jarayonini boshqarishni innovatsion texnologiyalar orqali takomillashtirish bo'yicha o'tkazilgan pedagogik tajriba davomida sportchi talabalarning tezkor tayyorgarlik ko'rsatkichlarini o'zgarish dinamikasi degan paragrafida tadqiqotlar davomida tezkorlik tayyorgarlik ko'rsatkichlarini xarakterlaydigan testlar bo'yicha nazorat va tajriba guruhlariga mansub talaba sportchilarining pedagogik tajriba boshida va oxirida qayd etilgan (test va retest) natijalari, ularning asosiy statistik xarakteristikalarini, o'rganilgan har bir test bo'yicha guruhlar sinaluvchilari natijalari o'rtacha arifmetik qiymatlarining absolyut va (ushbu guruhda tajriba boshidagi mos ko'rsatkichga nisbatan) nisbiy o'sishlari hamda ushbu absolyut o'sishlarni St'yudent taqsimoti kritik qiymatlarini hisoblash asosida amalga oshirilgan statistik ishonchlilik baholari ma'lumotlari 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Nazorat (n = 24) va tajriba (n=24) guruhlariga mansub talaba sportchilarining tezkorlik tayyorgarlik ko'rsatkichlari statistik xarakteristikalarini pedagogik tajriba davomida o'zgarish dinamikasi

| test | Gu ruh | Tajriba boshi | | | Tajriba oxiri | | | AO' | t | P |
|--|-----------|---------------|----------|-------|---------------|----------|-------|------|------|--------|
| | | \bar{X} | σ | V, % | \bar{X} | σ | V, % | | | |
| 30(m) masofaga start oldi yugurish vaqti (s) | NG | 3,97 | 0,50 | 12,59 | 3,73 | 0,45 | 12,12 | 0,24 | 1,74 | >0,05 |
| | TG | 3,88 | 0,50 | 12,96 | 3,42 | 0,41 | 12,12 | 0,46 | 3,48 | <0,01 |
| 30 (m) masofaga past startdan yugurish vaqti (s) | NG | 4,14 | 0,60 | 14,57 | 3,85 | 0,54 | 14,12 | 0,29 | 1,73 | >0,05 |
| | TG | 4,07 | 0,61 | 14,99 | 3,51 | 0,50 | 14,13 | 0,56 | 3,49 | <0,01 |
| 30 (m) masofaga yuqori startdan yugurish vaqti (s) | NG | 4,36 | 0,59 | 13,53 | 4,026 | 0,53 | 13,16 | 0,33 | 2,06 | <0,05 |
| | TG | 4,49 | 0,63 | 13,96 | 3,77 | 0,49 | 13,10 | 0,72 | 4,42 | <0,001 |
| 60 (m) masofaga yugurish vaqti (s) | NG | 7,97 | 0,92 | 11,54 | 7,54 | 0,84 | 11,15 | 0,44 | 1,71 | >0,05 |
| | TG | 7,81 | 0,94 | 11,97 | 6,94 | 0,77 | 11,12 | 0,87 | 3,51 | <0,01 |
| 100 (m) masofaga yugurish vaqti (s) | NG | 13,58 | 1,97 | 14,53 | 12,48 | 1,76 | 14,10 | 1,10 | 2,04 | <0,05 |
| | TG | 13,39 | 2,01 | 14,99 | 11,13 | 1,57 | 14,11 | 2,26 | 4,35 | <0,001 |
| 150 (m) masofaga yugurish vaqti (s) | NG | 21,51 | 2,71 | 12,58 | 20,23 | 2,45 | 12,11 | 1,28 | 1,72 | >0,05 |
| | TG | 20,84 | 2,70 | 12,98 | 18,37 | 2,23 | 12,14 | 2,47 | 3,45 | <0,01 |
| 200 (m) masofaga yugurish vaqti (s) | NG | 26,98 | 3,38 | 12,53 | 25,08 | 3,03 | 12,08 | 1,90 | 2,05 | <0,05 |
| | TG | 27,73 | 3,60 | 12,98 | 23,59 | 2,86 | 12,12 | 4,14 | 4,41 | <0,001 |

Izoh: AO'-absolyut o'sish, t-kritik qiymat, P-ahamiyatlilik darajasi.


Mazkur jadvalda keltirilgan ma'lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilish pedagogik tajribaga jalb etilgan nazorat guruhi sportchi talabalari tomonidan o'rganilgan tezkor tayyorgarlik ko'rsatkichlarini xarakterlaydigan testlar bo'yicha tajriba boshida va oxirida qayd etilgan (test va retest) natijalari pedagogik tajriba

davomida, xuddi jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlaridagi singari, o'rganilgan hamma 7 ta ko'rsatkichlarda ham ijobiy o'zgarishlar sodir bo'lganligini ko'rsatib turibdi. Jumladan, o'rganilgan 1-test bo'yicha pedagogik tajriba boshida nazorat guruhi sportchi talabalari natijalarining o'rtacha arifmetik va standart og'ish qiymatlari $\bar{X} \pm \sigma = 3,97 \pm 0,50$ s. ga teng bo'lgan bo'lsa, tajriba oxirida mazkur ko'rsatkichlar $\bar{x} \pm \sigma = 3,73 \pm 0,45$ s. gacha ijobiy tomonga o'zgarganligi aniqlandi. Shuning bilan birga, ushbu test ko'rsatkichlari bo'yicha mazkur guruh sportchilarining tajriba natijalari o'rtacha arifmetik qiymatlarining absolyut o'sishi 0,24 s.ni va ularning (tajriba boshidagi mos ko'rsatkichiga nisbatan) nisbiy o'sishi 6,05 % ni, o'rganilgan 1-test bo'yicha pedagogik tajriba boshida tajriba guruhi sportchi talabalari natijalarining o'rtacha arifmetik va standart og'ish qiymatlari $\bar{X} \pm \sigma = 3,88 \pm 0,50$ s. ga teng bo'lgan bo'lsa, tajriba oxirida mazkur ko'rsatkichlar $\bar{x} \pm \sigma = 3,42 \pm 0,41$ s. ga teng ekanligi aniqlandi. Shuning bilan birga, ushbu test ko'rsatkichlari bo'yicha mazkur guruh sportchilarining tajriba natijalari o'rtacha arifmetik qiymatlarining absolyut o'sishi 0,46 s. ni va ularning (tajriba boshidagi mos ko'rsatkichiga nisbatan) nisbiy o'sishi 11,93 % ni tashkil etganligi (TGdagi nisbiy o'sish NGdagi mos ko'rsatkichdan 5,88 foiz miqdorida ortiqcha ijobiy o'zgargan) aniqlandi (3-rasm).

Ushbu test bo'yicha qayd etilgan natijalar o'rtacha arifmetik qiymatlari absolyut o'sishining statistik ishonchliligini St'yudent taqsimoti kritik qiymatini hisoblash asosida baholash nazorat guruhidagi ijobiy o'zgarishni qoniqarli ($t=1,74$ va $P>0,05$) ahamiyatlilik darajasida ishonchsiz ekanligini, tajriba guruhida qayd etilgan natijalar o'zgarishini baholash esa yaxshi ($t=3,48$ va $P<0,01$) ahamiyatlilik darajasida ishonchli ekanligini aniqlash imkonini berdi.

Shuning bilan birga, pedagogik tajriba davomida nazorat guruhi sinaluvchilarining o'rganilgan 7 ta tezkorlik tayyorgarlik testlari orasida eng kichik ijobiy nisbiy o'sish 4-testda (5,46 %), eng katta nisbiy o'sish esa 5-testda (8,10 %) kuzatilgan bo'lsa, 7 ta test bo'yicha umumiy o'rtacha ijobiy nisbiy o'sish 6,74 % ni (ushbu nazorat guruhidagi jismoniy tayyorgarlik sinovlaridagi mos 7,13 % ko'rsatkichdan 0,39 % ga kamroq o'sgan), tajriba guruhi sinaluvchilarining o'rganilgan 7 ta tezkorlik tayyorgarlik testlari orasida eng kichik ijobiy nisbiy o'sish 4-testda (11,13 %), eng katta nisbiy o'sish esa 5-testda (16,88 %) kuzatilgan bo'lsa, 7 ta test bo'yicha guruhdagi umumiy o'rtacha ijobiy nisbiy o'sish 13,79 % ni (nazorat guruhidagi mos 6,74 % ko'rsatkichdan 7,05 % ga yoki 2,045 martaga ko'p o'sgan) tashkil etganligi aniqlandi.

O'rganilgan 7 ta tezkorlik tayyorgarlik testlarining nazorat guruhida pedagogik tajriba davomida qayd etilgan natijalar o'rtacha arifmetik qiymatlari absolyut o'sishining statistik ishonchlilik ko'rsatkichlaridan to'rttasi yoki 57,14 foizi qoniqarli ($P>0,05$ hamda $t = 1,71$ va $t = 1,74$ oraliq intervalida joylashgan qiymatlar bilan) ahamiyatlilik darajasida ishonchsiz va qolgan 42,86 foizi yoki yana uchtasi qoniqarli ($P<0,05$ hamda $t = 2,06$; $t = 2,04$ va $t = 2,05$ qiymatlar bilan) ahamiyatlilik darajasida ishonchli, tajriba guruhida pedagogik tajriba davomida qayd etilgan natijalar o'rtacha arifmetik qiymatlari absolyut o'sishining statistik ishonchlilik ko'rsatkichlaridan uchtasi yoki 42,86 foizi yuqori ($P<0,001$ hamda $t = 4,42$; $t = 4,35$ va $t = 4,41$ qiymatlar bilan) ahamiyatlilik darajasida va qolgan to'rttasi yoki 57,14 foizi yaxshi ($P<0,01$ hamda $t = 3,48$; $t = 3,39$; $t = 3,51$ va $t = 3,45$ qiymatlar bilan) ahamiyatlilik darajasida ishonchli ijobiy o'zgarganligi kuzatildi.



3-rasm. Nazorat va tajriba guruhlariga mansub talaba sportchilarining tezkorlik tayyorgarlik ko'rsatkichlari dinamikasi

Ushbu diagrammada keltirilgan ma'lumotlarni tahlili nazorat va tajriba guruhlariga mansub talaba sportchilarining tezkorlik tayyorgarlik ko'rsatkichlari statistik xarakteristikalarini o'rtacha arifmetik qiymatlarini pedagogik tajriba davomida nisbiy o'sishlarining nisbati eng kamida 1,974 marta va eng ko'pida 2,093 marta, guruhlardagi nisbiy o'sishlar bo'yicha esa 2,045 martaga nazorat guruhiga nisbatan tajriba guruhida ko'proq o'sganligi kuzatildi.

Pedagogik tajriba davomida o'rganilgan funksional tayyorgarlik ko'rsatkichlarini xarakterlaydigan testlar bo'yicha nazorat va tajriba guruhlariga mansub talaba sportchilarining pedagogik tajriba boshida va oxirida qayd etilgan (test va retest) natijalari, ularning asosiy statistik xarakteristikalarini, o'rganilgan har bir test bo'yicha guruhlar sinalluvchilari natijalari o'rtacha arifmetik qiymatlarining absolyut va (ushbu guruhda tajriba boshidagi mos ko'rsatkichga nisbatan) nisbiy o'sishlari hamda ushbu absolyut o'sishlarni St'yudent taqsimoti kritik qiymatlarini hisoblash asosida amalga oshirilgan statistik ishonchlik baholari ma'lumotlari 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

Nazorat (n = 24) va tajriba (n=24) guruhlariga mansub talaba sportchilarining funksional tayyorgarlik ko'rsatkichlari statistik xarakteristikalarini pedagogik tajriba davomida o'zgarish dinamikasi

| Test | Guruh | Tajriba boshi | | | Tajriba oxiri | | | AO' | NO' | t | P |
|--|-------|---------------|----------|------|---------------|----------|------|------|-------|------|--------|
| | | \bar{X} | σ | V, % | \bar{X} | σ | V, % | | | | |
| yurak qisqarish sur'ati (zarba/daqqa) | NG | 71,79 | 3,27 | 4,55 | 70,24 | 2,89 | 4,11 | 1,55 | 2,16 | 1,74 | >0,05 |
| | TG | 71,13 | 3,54 | 4,98 | 68,67 | 2,83 | 4,12 | 2,46 | 3,46 | 2,66 | <0,05 |
| sistolik arterial qon bosimi (SAB, mm. sim. ust.) | NG | 123,93 | 4,44 | 3,58 | 121,82 | 3,83 | 3,14 | 2,11 | 1,70 | 1,76 | >0,05 |
| | TG | 122,83 | 4,89 | 3,98 | 119,66 | 3,76 | 3,14 | 3,17 | 2,58 | 2,52 | <0,05 |
| diastolik arterial qon bosimi (DAB, mm. sim. ust.) | NG | 62,43 | 4,74 | 7,59 | 64,91 | 4,62 | 7,12 | 2,48 | 3,97 | 1,84 | >0,05 |
| | TG | 63,28 | 5,04 | 7,96 | 68,29 | 4,87 | 7,13 | 5,01 | 7,92 | 3,50 | <0,01 |
| SHtange sinovi (s.) | NG | 48,52 | 4,15 | 8,55 | 51,02 | 4,14 | 8,11 | 2,50 | 5,15 | 2,09 | <0,05 |
| | TG | 49,46 | 4,44 | 8,98 | 55,15 | 4,48 | 8,12 | 5,69 | 11,50 | 4,42 | <0,001 |

5-jadval davomi

| | | | | | | | | | | | |
|--|----|---------|--------|------|---------|--------|------|--------|-------|------|--------|
| Genche sinovi (s.) | NG | 22,47 | 2,14 | 9,52 | 23,76 | 2,17 | 9,13 | 1,29 | 5,74 | 2,07 | <0,05 |
| | TG | 22,89 | 2,28 | 9,96 | 25,86 | 2,36 | 9,13 | 2,97 | 12,98 | 4,43 | <0,001 |
| o'pkaning tiriklik sig'imi (O'TS, ml.) | NG | 4808,26 | 363,26 | 7,55 | 4989,68 | 354,73 | 7,11 | 181,42 | 3,77 | 1,75 | >0,05 |
| | TG | 4891,74 | 389,94 | 7,97 | 5178,37 | 368,32 | 7,11 | 286,63 | 5,86 | 2,62 | <0,05 |
| maksimal kislorod iste'mol qilish (MKIQ, ml.), | NG | 3738,28 | 245,93 | 6,58 | 3882,48 | 238,27 | 6,14 | 144,20 | 3,86 | 2,06 | <0,05 |
| | TG | 3681,19 | 256,79 | 6,98 | 4000,96 | 244,68 | 6,12 | 319,77 | 8,69 | 4,42 | <0,001 |
| PWC170 – jismoniy ish qobiliyati (kgm/min.) | NG | 1616,97 | 138,43 | 8,56 | 1688,12 | 137,14 | 8,12 | 71,15 | 4,40 | 1,79 | >0,05 |
| | TG | 1635,82 | 146,84 | 8,98 | 1783,18 | 145,57 | 8,16 | 147,36 | 9,01 | 3,49 | <0,01 |
| GSTI – Garvard step test indeksi (s.) | NG | 107,76 | 6,02 | 5,59 | 110,71 | 5,66 | 5,11 | 2,95 | 2,74 | 1,75 | >0,05 |
| | TG | 109,03 | 6,51 | 5,97 | 114,97 | 5,86 | 5,10 | 5,94 | 5,45 | 3,32 | <0,01 |

Izoh: AO'-absolyut o'sish, t-kritik qiymat, P-ahamiatlilik darajasi.


Mazkur jadvalda keltirilgan ma'lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilish pedagogik tajribaga jalb etilgan nazorat va tajriba guruhleri sportchi talabalari tomonidan tajriba davomida o'rganilgan, xuddi jismoniy va tezkorlik tayyorgarlik testlaridagi singari, funktsional tayyorgarlik ko'rsatkichlarini xarakterlaydigan testlar bo'yicha ham tajriba boshida va oxirida qayd etilgan (test va retest) natijalari pedagogik tajriba davomida o'rganilgan hamma 9 ta ko'rsatkichlarda ham ijobiy o'zgarishlar sodir bo'lganligini ko'rsatib turibdi. Jumladan, o'rganilgan 1-test bo'yicha pedagogik tajriba boshida nazorat guruhi sportchi talabalari natijalarining o'rtacha arifmetik va standart og'ish qiymatlari $\bar{x} \pm \sigma = 71,79 \pm 3,27$ zarba/daqiqaga teng bo'lgan bo'lsa, tajriba oxirida mazkur ko'rsatkichlar $\bar{x} \pm \sigma = 70,24 \pm 2,89$ zarba/daqiqaga teng ekanligi aniqlandi. Shuning bilan birga, ushbu test ko'rsatkichlari bo'yicha mazkur guruh sportchilarining tajriba natijalari o'rtacha arifmetik qiymatlarining absolyut o'sishi 1,55 zarba/daqiqani va ularning (tajriba boshidagi mos ko'rsatkichiga nisbatan) nisbiy o'sishi 2,16 % ni, tajriba guruhida o'rganilgan 1-test bo'yicha pedagogik tajriba boshida tajriba guruhi sportchi talabalari natijalarining o'rtacha arifmetik va standart og'ish qiymatlari $\bar{x} \pm \sigma = 71,13 \pm 3,54$ zarba/daqiqaga teng bo'lgan bo'lsa, tajriba oxirida mazkur ko'rsatkichlar $\bar{x} \pm \sigma = 68,67 \pm 2,83$ zarba/daqiqaga teng ekanligi, bu test bo'yicha nisbiy o'sishi 3,46 % ekanligi (TGdagi nisbiy o'sish NGdagi mos ko'rsatkichdan 1,30 % ga ortiq miqdorda ijobiy o'zgarigan) aniqlandi (4-rasm).

Ushbu test bo'yicha nazorat guruhida qayd etilgan natijalar o'rtacha arifmetik qiymatlari absolyut o'sishining statistik ishonchliligini St'yudent taqsimoti kritik qiymatini hisoblash asosida baholash mazkur ijobiy o'zgarishni qoniqarli ($t=1,74$ va $P>0,05$) ahamiatlilik darajasida ishonchsiz, lekin ijobiy o'zgarish ekanligini, tajriba guruhidagi mazkur test natijalarini tajriba davomidagi ijobiy o'zgarishi qoniqarli ($t=2,66$ va $P<0,05$) ahamiatlilik darajasida ishonchli

ekanligini aniqlash imkonini berdi.


Shuning bilan birga, pedagogik tajriba davomida nazorat guruhi sinaluvchilarining o'rganilgan 9 ta funksional tayyorgarlik testlari orasida eng kichik ijobiy nisbiy o'sish 2-testda (1,70 %), eng katta nisbiy o'sish esa 5-testda (5,74 %) kuzatilgan bo'lsa, 9 ta test bo'yicha umumiy o'rtacha ijobiy nisbiy o'sish 3,72 % ni tashkil etganligi aniqlandi. O'rganilgan 9 ta funksional tayyorgarlik testlarining nazorat guruhida pedagogik tajriba davomida qayd etilgan natijalar o'rtacha arifmetik qiymatlari absolyut o'sishining statistik ishonchlik ko'rsatkichlaridan oltitasi yoki 66,67 foizi qoniqarli ($P > 0,05$ hamda $t = 1,74$ va $t = 1,84$ qiymatlar oralig'ida joylashgan) ahamiyatlilik darajasida ishonchsiz va qolgan uchta yoki yana 33,33 foizi qoniqarli ($P < 0,05$ hamda $t = 2,09$; $t = 2,07$ va $t = 2,06$ qiymatlar bilan) ahamiyatlilik darajasida ishonchli, tajriba guruhida pedagogik tajriba davomida qayd etilgan natijalar o'rtacha arifmetik qiymatlari absolyut o'sishining statistik ishonchlik ko'rsatkichlaridan uchta yoki 33,33 foizi yuqori ($P < 0,001$ hamda $t = 4,42$; $t = 4,43$ va $t = 4,42$ qiymatlar bilan) ahamiyatlilik darajasida, yana uchta yoki 33,33 foizi yaxshi ($P < 0,01$ hamda $t = 3,50$; $t = 3,49$ va $t = 3,32$ qiymatlar bilan) ahamiyatlilik darajasida va qolgan uchta yoki 33,33 foizi qoniqarli ($P < 0,05$ hamda $t = 2,66$; $t = 2,52$ va $t = 2,62$ qiymatlar bilan) ahamiyatlilik darajasida ishonchli ijobiy o'zgarganligi kuzatildi.

Shuning bilan birga, pedagogik tajriba davomida tajriba guruhi sinaluvchilarining o'rganilgan 9 ta funksional tayyorgarlik testlari orasida eng kichik ijobiy nisbiy o'sish 2-testda (2,58 %), eng katta nisbiy o'sish esa 5-testda (12,98 %) kuzatilgan bo'lsa, 9 ta test bo'yicha umumiy o'rtacha ijobiy nisbiy o'sish 7,49 % ni (nazorat guruhidagi mos 3,72 % ko'rsatkichdan 3,77 % ga yoki 2,017 martaga ortiq) tashkil etganligi aniqlandi.




4-rasm. Nazorat va tajriba guruhlariga mansub talaba sportchilarining funksional tayyorgarlik ko'rsatkichlari dinamikasi

Ushbu diagrammada keltirilgan ma'lumotlarni tahlili nazorat va tajriba guruhlariga mansub talaba sportchilarining 9 ta funksional tayyorgarlik ko'rsatkichlari statistik xarakteristikalarini o'rtacha arifmetik qiymatlarini pedagogik tajriba davomida nisbiy o'sishlarining nisbati eng kamida 1,516 marta va eng ko'pida 2,260 marta, guruhlardagi nisbiy o'sishlar bo'yicha esa 2,013 martaga nazorat guruhiga nisbatan tajriba guruhida ko'proq o'sganligi kuzatildi.



5-rasm. Nazorat va tajriba guruhlariga mansub talaba sportchilarining jismoniy, tezkorlik va funktsional tayyorgarlik ko'rsatkichlari o'rtacha arifmeyik qiymatlarining pedagogik tajriba davomida nisbiy o'sishlari nisbatini solishtirish (marta)

Pedagogik tajriba davomida jismoniy, tezkorlik, funktsional tayyorgarlik darajalarini yanada yaqqol ko'zga ko'rinishi uchun mazkur guruhlarda nisbiy o'sishlarni foizlarda ko'rsatib o'tish lozim deb xisobladik.



6-diagramma. Pedagogik tajriba davomida nazorat va tajriba guruhlariga mansub talaba sportchilarining jismoniy, tezkorlik va funktsional tayyorgarlik ko'rsatkichlari dinamikasi

Shuning bilan birga pedagogik tajriba yakunida nazorat hamda tajriba guruhlari sinalluvchilarining statistik karakteristikalarini tahlil qilish olib borilganda nazorat hamda tajriba guruhida jismoniy tayyorgarlik 7,13% dan 14,9% , tezkorlik tayyorgarlik esa 6,74% dan 13,79%, funktsional tayyorgarlik esa, 3,72% dan 7,49%

umumiy ko'rsatkichlar esa 5,87% dan 12,06% ga yaxshilanganini ko'rishimiz mumkin. Olingan natijalardan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, biz tomonimizdan qo'llanilgan metodikalar o'z samarasini berdi hisoblaymiz.

XULOSALAR

Dissertatsiya ishi bo'yicha mavzuga oid to'plangan adabiyot manbalarini o'rganish olib borilgan kuzatuv, o'tkazilgan tadqiqotlar va pedagogik tajriba natijalarining tahlilidan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Eng muhim xulosalardan biri shundan iboratki, sport mashg'ulotlarini boshqarish murakkab pedagogik jarayondir. Har bir sportchining iqtidoridan qolaversa uning individual imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda yuklamalar taqsimotini olib borish pedagogik samaradorlikni muntazam ravishda aniqlab borish zarurdir. Har bir murabbiy o'ziga qulay tartibda emas, balki aniq maqsadga yo'naltirilgan, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanilgan hamda jahon standartlariga mos ravishda taqsimlangan UJT hamda MJT foizlarda aniq belgilangan bo'lishi lozim. Har bir davrga alohida e'tibor bilan yondashish lozim.

2. Qisqa masofaga yuguruvchi sportchilarning yillik mashg'ulot jarayonlarini boshqarishda mikrosikllarni takomillashtirish, har bir mikrosiklda bosqichli, tezkor, joriy boshqaruv shaklini qo'llab borish zarurdir. Sportchilar organizmiga berilgan yuklamalarni pedagogik nazorat qilib borish kerak.

Muntazam ravishda qat'iy tartib bilan mashg'ulot jarayonlarini olib borish funksional, texnik, taktik xususiyatlarni doimiy ravishda takomillashtirib borish sport musobaqalarida o'z natijasini beradi.

3. Qisqa masofaga yuguruvchi sportchilarning doimiy ravishda funksional holatini inobatga olgan holda sog'lomlashtirish, fitness, aerob, anaerob, maksimal puls zonalarida ishlash, yuklamalarni bajarishdagi shiddat zonalar, puls, yurak urushi kabi funksional ko'rsatkichlardan kelib chiqib yuklamalar individuallashtirib borilishi sport natijalarini yanada yaxshilash va sport formasini uzoq muddat saqlanib turishiga yordam beradi.

4. Bosqichli, joriy, tezkor boshqaruv usullarini qo'llash sxemasi har bir murabbiyda bo'lishi lozim. Murabbiylar o'z yashash joyining iqlim sharoiti, mavjud imkoniyatlar, sportchining texnik, taktik xususiyatlaridan kelib chiqib, o'z murabbiylik faoliyatiga boshqaruv usulini doimiy ravishda moslab, ma'lum bir muddatdan so'ng sportchining individual imkoniyatlarida ijobiy natijalar kuzatilganidan so'ng, yanada takomillashtirib borish maqsadga muvofiqdir.

5. Pedagogik tajriba davomida nazorat guruhi sinaluvchilarining o'rganilgan 6 ta jismoniy tayyorgarlik testlari orasida umumiy o'rtacha ijobiy nisbiy o'zgarish 14,09 % ni (TGdagi o'rtacha nisbiy o'sish NGdagidan 6,96 foizga ortiqcha o'sganligi) tashkil etdi. O'rganilgan 6 ta jismoniy tayyorgarlik testlarining nazorat guruhida pedagogik tajriba davomida qayd etilgan natijalar o'rtacha arifmetik qiymatlari absolyut o'sishining statistik ishonchlilik ko'rsatkichlaridan uchtasi ($P < 0,05$ hamda $t = 2,05$; $t = 2,06$ va $t = 2,07$ qiymatlar bilan) ahamiyatlilik darajasida ishonchli va qolgan uchtasi qoniqarli ($P > 0,05$ hamda $t = 1,75$; $t = 1,79$

va $t = 1,78$ qiymatlar bilan) ahamiyatlilik darajasida ishonchsiz, tajriba guruhida esa ushbu 6 tadan uchasi yaxshi ($P < 0,01$ hamda $t = 3,47$; $t = 3,79$ va $t = 3,49$ qiymatlar bilan) ahamiyatlilik darajasida ishonchli va qolgan uchasi yuqori ($P < 0,001$ hamda $t = 4,34$; $t = 4,23$ va $t = 3,97$ qiymatlar bilan) ahamiyatlilik darajasida ishonchli ijobiy o'zgariganligi kuzatildi.

6. Pedagogik tajriba davomida nazorat guruhi sinaluvchilarining o'rganilgan 7 ta tezkorlik tayyorgarlik testlari bo'yicha o'rtacha ijobiy nisbiy o'sish 6,74 % ni, tajriba guruhi sinaluvchilarining o'rganilgan 7 ta tezkorlik tayyorgarlik testlari bo'yicha umumiy o'rtacha ijobiy nisbiy o'sish 13,79 % ni (nazorat guruhidagi mos 6,74 % ko'rsatkichdan 7,05 % ga yoki 2,045 martaga ko'p o'sgan) tashkil etganligi aniqlandi. 7 ta tezkorlik tayyorgarlik testlarining nazorat guruhida pedagogik tajriba davomida qayd etilgan natijalar o'rtacha arifmetik qiymatlari absolyut o'sishining statistik ishonchlilik ko'rsatkichlaridan to'rttasi qoniqarli ($P > 0,05$) ahamiyatlilik darajasida ishonchsiz va qolgan uchasi qoniqarli ($P < 0,05$) ahamiyatlilik darajasida ishonchli, tajriba guruhida pedagogik tajriba davomida qayd etilgan natijalar o'rtacha arifmetik qiymatlari absolyut o'sishining statistik ishonchlilik ko'rsatkichlaridan uchasi yuqori ($P < 0,001$) ahamiyatlilik darajasida va qolgan to'rttasi yoki 57,14 foizi yaxshi ($P < 0,01$) ahamiyatlilik darajasida ishonchli ijobiy o'zgariganligi kuzatildi.

7. pedagogik tajriba davomida nazorat guruhi sinaluvchilarining o'rganilgan 9 ta funktsional tayyorgarlik testlarining nazorat guruhida pedagogik tajriba davomida qayd etilgan natijalar o'rtacha arifmetik qiymatlari absolyut o'sishining statistik ishonchlilik ko'rsatkichlaridan oltitasi qoniqarli ($P > 0,05$) ahamiyatlilik darajasida ishonchsiz va qolgan uchasi qoniqarli ($P < 0,05$) ahamiyatlilik darajasida ishonchli, tajriba guruhida esa pedagogik tajriba davomida qayd etilgan natijalar o'rtacha arifmetik qiymatlari absolyut o'sishining statistik ishonchlilik ko'rsatkichlaridan uchasi yoki yuqori ($P < 0,001$) ahamiyatlilik darajasida, yana uchasi yaxshi ($P < 0,01$) ahamiyatlilik darajasida va qolgan uchasi qoniqarli ($P < 0,05$) ahamiyatlilik darajasida ishonchli ijobiy o'zgariganligi kuzatildi.

8. Shuning bilan birga, pedagogik tajriba davomida tajriba guruhi sinaluvchilarining o'rganilgan 9 ta funktsional tayyorgarlik testlari bo'yicha umumiy o'rtacha ijobiy nisbiy o'sish 7,49 % ni (nazorat guruhidagi mos 3,72 % ko'rsatkichdan 3,77 % ga yoki 2,017 martaga ortiq) tashkil etganligi aniqlandi.

AMALIY TAVSIYALAR

1. Qisqa masofaga yuguruvchi talaba-sportchilarni yillik tayyorgarlik mashg'ulot jarayonlarini boshqarishda musobaqalarga samarali tayyorlab borish davomida shunga e'tibor qaratdikki, yillik tayyorgarlik jarayonida murabbiylar tomonidan qo'llanilgan turli mazmundagi yuklamalar hajmining keragidan ortiq oshib ketishi yoki bajarilish shiddatining me'yoridan yuqori darajaga ko'tarilishi sportchilarning sport natijasiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etadi. Natijada ularning sport natijalari tushib ketishi yoki notekis darajada shakllanadi.

2. Sportchilar tayyorlab borishning yillik siklida yillik tayyorgarlik dasturida alohida start reaksiyalarini rivojlantiruvchi, yugurishning maxsus mashqalari hamda vositalar to'g'ri qo'llanilmasa sport natijalarining bir joyda qotib qolishi ehtimoli mavjud. Biz tomonimizda ishlab chiqilgan boshqaruv modeli, yillik optimal yuklamalar taqsimoti hamda uch haftalik mikrosikl talaba sportchilarni musobaqa faoliyatiga samarali tayyorlab borishga yordam beradi.

Qolaversa, ularning vaqt bilan masofani his qilish qobiliyatini, yurak-qon tomir tizimini rivojlantirish, nafas olish chastotasi va yugurish ritmining ijobiy tomonga o'zgarishini ta'minlaydi.

3. Mashg'ulot jarayonida vosita va uslublarni to'g'ri qo'llay bilish mashg'ulot vositalarini aniqlashtirib olish yugurish qadamlari texnikasini yanada chuqurroq egallashga va har bir mashg'ulot mobaynida takomillashtirib borishga yordam beradi.

4. Qisqa masofaga imkon qadar qadamlarni ko'proq tashlab yugurish, turli tomonga yugurish, tizzalarni baland-baland ko'tarib yugurish ushbu jarayonda qo'llar oyoqqa nisbatan proroprisonal ravishda harakat qiladi.

5. Oyoqdan-oyoqqa sakrab yugurish: Ushbu yugurish mashqini bajarishda sportchilar har qadamda goh o'ng, goh chap oyoqni oldinga chiqarib yuguradi. Bunda ham qo'llar oyoqlar harakatiga proporsional holatda erkin harakatlanib bajaradi.

6. Qadamlab tizzani navbatma-navbat baland-baland ko'tarib yugurish. (3-4 marotaba). Imkon qadar ushbu mashq gavdani erkin tutgan holda bajariladi. Yana bedana qadamlab yugurishda davom etib, oyoqlarni navbatma-navbat almashtirib bajariladi. Mashqni bajarish chog'ida qaytarishlar 60 m.da 5-6 marta bo'lishi kerak.

7. Yon tomon bilan sakrab yugurish. Yon tomon bilan turib yugurishda harakat yonga sakrab yugurib bajariladi. Qo'llar katta amplitudada harakat qiladi. 2-4 marta bir oyoqda deysinib, tizzalarni ko'tarib yugurish.

8. Mashq tekis yugurish yo'lagida bajarilib, bir oyoqda ketma-ket 4 marta sakrab keyin ikkinchi oyoqqa tezlik bilan almashiladi. Almashinish vaqtida qo'llar harakati ham tezlashtiriladi. Oyoq tagini imkon darajada tekisroq qo'yish bilan yugurishni amalga oshirish kerak.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc03/30.12.2019.Ped.28.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА**

**УЗБЕКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ФИЗИЧЕСКОЙ
КУЛЬТУРЫ И СПОРТА**

САИДОВА НИГОРА РУСТАМ КИЗИ

**УПРАВЛЕНИЕ ТРЕНИРОВОЧНЫМ ПРОЦЕССОМ ГОДИЧНОЙ
ПОДГОТОВКИ БЕГУНОВ**

**13.00.04 – “Теория и методика физической культуры, спортивной тренировки,
оздоровительной и адаптивной физической культуры”**

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Чирчик–2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан под номером B2023.1.PhD/Ped4638.

Диссертация выполнена в Узбекском государственном университете физической культуры и спорта.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице научного совета (www.uzdjtsu.uz) и Информационно-образовательном портале “ZiyoNet” (www.ziyo.net).

Научный руководитель:

Олимов Мухсинбек Сотиволдиевич
доктор педагогических наук, профессор (DSc)

Официальные оппоненты:

Исакулова Нилуфар Жаникуловна
доктор педагогических наук, профессор (DSc)

Рузамухамедов Камолитдин Фахриддинович
доктор педагогических наук, (PhD)

Ведущая организация:

Гулистанский государственный университет

Защита диссертации состоится “___” “_____” 2024 г. в _____ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 при Узбекском государственном университете физической культуры и спорта. (Адрес: 111709, Ташкентская область, г. Чирчик, ул. Металлурглар, дом 15. Тел: (0-370)-717-17-79, 717-27-27, факс:(0-370) 717-17-76, веб-сайт: www.jtsu.uz, e-mail:info@jtsu.uz. Малый зал заседаний “Дворца культуры” Узбекского государственного университета физической культуры и спорта, 2- этаж, зал научных заседаний).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекского государственного университета физической культуры и спорта (зарегистрирована за № ___) (Адрес: 111709, Ташкентская область, г. Чирчик, ул. Металлурглар, дом 15). Тел: (0-370)-717-17-79, 717-27-27, факс:(0-370) 717-17-76.

Автореферат диссертации разослан “___” _____ 2024года.
(реестр протокола рассылки №___ от “___” _____ 2024года)

Р.М.Маткаримов
Председатель Научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.п.н.(DSc), профессор

Ш.Ш.Газиев
Ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.п.н, (DSc), доцент

А.Н.Шопулатов
Председатель научного семинара
При Научном совете по присуждению ученых степеней,
д.п.н. (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Развитие спортивных видов легкой атлетики в мировом масштабе, наряду с нахождением талантливых, перспективных спортсменов, неразрывно связано с разработкой, организацией и целенаправленным управлением перспективными планами процессов многолетних тренировок на основе коренного реформирования и оптимального планирования системы подготовки спортсменов. На сегодняшний день в системе подготовки спортсменов проводятся различные научные исследования. Однако, несмотря на это, вопросы правильной организации и управления системой подготовки спортсменов изо дня в день становятся одними из актуальных задач. Потому что постоянный рост спортивных результатов, демонстрируемых на проводимых на мировых спортивных аренах соревнованиях, требует эффективного управления процессом проводимых тренировок.

